

NASIROVA Malika

Ўзбекистон халқаро ислом академияси
кафедра мудири, филология фанлари номзоди
m.nasirova@iiia.uz

ARAB TILSHUNOSLIGI TARIXI: BASRA GRAMMATIKA MAKTABI

ИСТОРИЯ АРАБСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ: ГРАММАТИЧЕСКАЯ ШКОЛА БАСРИ

HISTORY OF ARABIC LINGUISTICS: BASRA GRAMMAR SCHOOL

Annotasiya: Mazkur maqola arab tilshunosligi maktablarining eng birinchisi Basra maktabi va uning vakillari, ular yozib qoldirgan bebaho ilmiy meros haqida ma'lumot beradi. Unda Basra maktabining paydo bo'lishi, vakillari, ularning asarlari mo'tabar manbalarga tayangan holda batafsil bayon qilingan. Abu-l-Aswad Dualiydan boshlanib al-Mubarridgacha davom etgan ushbu maktab tilshunoslarining faoliyati, ustoz-shogirlik an'analari aks etgan.

Tayanch so'z va iboralar: Basra shahri, nahv va sarf ilmi, aruz, Xalil ibn Ahmad, Sibavayhi, nahv maktabi.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о первой школе арабского языкознания Басрской школе и ее представителях, а также о бесценном научном наследии, которое они оставили после себя. Подробно рассказывается о появлении Басрской школы, ее представителей и их работах на основании достоверных источников. Деятельность языковедов этой школы, начавшаяся от Абу-л-Асвада Дуали и продолженная до ал-Мубаррида, нашла свое отражение в традициях учительско-ученичества.

Ключевые слова: город Басра, морфология и синтаксис, аруз, Халил ибн Ахмад, Сивавейх, школа грамматики.

Annotation: This article provides information about the first school of Arabic linguistics, the Basra school and its representatives, as well as about the invaluable scientific heritage that they left behind. It tells in detail about the emergence of the Basra school, its representatives and their work on the basis of reliable sources. The activity of the linguists of this school, which

began from Abu-l-Aswad Duali and continued until al-Mubarrid, was reflected in the traditions of teaching and apprenticeship.

Keywords: city of Basra, morphology and syntax, aruz, Khalil ibn Ahmad, Sibawayh, school of grammar.

KIRISH

Arab tilshunosligi tarixini kuzatar ekanmiz, u paydo bo'lgan kundan boshlab o'z rivojlanish va taraqqiyot yo'lida bir qancha ilmiy maktablar bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Bular - Basra, Kufa, Bag'dod, Andalusiya, Misr (qarang: 8; 9;10) va nihoyat Movarounnahr arab tilshunoslik maktabi (4a, 2019; 5 b, 2019). Mazkur maktablarning vakillari arab tilshunosligiga oid izlanishlari natijasi o'laroq arab tilshunosligini yaratishgan, rivojlantirib dunyoning rivojlangan tillari tilshunosligi qatoridan munosib joy olishiga sababchi bo'lishgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Basra shahriga 636-yil Fors ko'rfazida, Shat al-arab daryosi bo'yida asos solingan. Qulay geografik o'ringa joylashganligi sababli, shahar ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan juda rivojlanib ketdi. Savdogarlar u yerda tijorat qilish uchun, adiblar o'zlari yozgan she'rlari bilan bir-birlari bilan bahslashish uchun u yerga to'plana boshladilar. Masjidlar ilmi toliblar va ulamolar bilan to'lib toshdi.

Basraning gullab-yashnagan oltin davri Abbosiylar xalifaligi hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu vaqtda shaharning iqtisod, siyosat, davlat boshqaruvi va ilm sohalarida obro'-e'tibori oshib, Bag'doddan so'ng ikkinchi o'ringa ko'tarildi. Yevropa, Iroq, ajam va Hindiston o'lkalarini bog'lab turadigan tijorat markaziga aylandi. Masjid va kutubxonalar ilmi tolib, adabiyotshunoslar bilan to'lib toshdi.

Yuqorida zikr qilib o'tganimizdek, shaharning geografik joylashuvi, tabiiy iqlimi qulay bo'lganligi sababidan shaharga har tarafdin turli millat, madaniyat va din vakillari kirib kela boshladi. Xususan, shahar fors, yunon, hind va arab madaniyatining tutashgan nuqtasiga aylandi.

Basra Hindiston va Xitoy bilan savdo munosabatlarida muhim rol o'ynar edi. Shahar aholisi turli millat vakillaridan, demakki, G'arb va Sharqning qadimgi madaniyat o'choqlaridan o'zining turli madaniy an'analari, dunyoqarashlari bilan kelgan kishilardan iborat edi. Ayni shu yerda

arab tilini o'rganishga ishtiyoqning paydo bo'lishi hech ajablanarli emas.

Arab jazirasi markazidan Basraga kelayotgan arablar o'z yuklarini qo'yish uchun Basra tepaliklaridan yaxshiroq bir joy qidirishar edi. Basra aholisi esa bu joyni bilar va ular bilan savdo-sotiq qilish uchun kutib turishar edi. Ko'p o'tmay bu joy tijorat rivoj topgan katta bozorga aylandi. Shoirlar va adiblar bu bozor sari intilar edi. Mavsum vaqtida turli taraflardan arablar tijorat maqsadida bu joyga kelar, fosihatli arablar u yerga shoshilar, shoirlar o'zlari yozgan she'rlarni o'qishib, bir-birlari bilan bahslashar edi. Til va adabiyot ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar esa bundan unumli foydalanar edi. [7:39]

Basra masjidlari ham nahv ilmining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. U yerda ko'plab ilmiy davralar uyushtiriladi. Shuningdek, qiroat, va'z, tilshunoslik, kalom ilmi, tafsir, hadis va boshqa bir qancha mavzularda majlislar o'tkazilardi. Bu kabi masjidlarda arab, fors va hindlardan iborat Basra aholisi bilan bir qatorda sahrodan kelayotgan badaviy arablar ham ishtirok etishga shoshilar edi.

ASOSIY QISM

Biz yuqorida qayd etgan sharoitda Basra shahrida o'ziga xos tilshunoslik maktabi yuzaga keldi. Bu maktabning asoschisi Abu-l-Asvad Dualiydan boshlab, al-Mubarridgacha bo'lgan vakillari Basra tilshunoslik maktabining tarix zarvaraqlarida muhrlanib qolishida jonbozlik ko'rsatdilar.

Abu-l-Asvad Dualiy o'zining arab tilshunosligiga oid birinchi qadamlarini ayni shu yerda tashlagan edi. Dualiydan boshlab Sibavayhigacha bo'lgan davrda ijod qilgan olimlarni tabaqalarga ajratadigan bo'lsak, Sibavayhi va Yazidiy 5-tabaqa vakillari ro'yxatidan joy oladilar. [10: 103; 11: 111-121]

Abdurahmon ibn Harmuz Abu-l-Asvad Dualiy bilan **1-tabaqa vakili** hisoblanadi (7, 39). Uning to'liq ismi – Abu Dovud Abdurahmon ibn Harmuz ibn Abi Said Madiniy al-A'rajdir. U arab tili grammatikasini birinchi bo'lib odamlarga o'rgatganlardan biridir. Ibn Harmuz shuningdek, qori, faqih va hadis so'zlovchilardan bo'lgan. U Iskandariyaga ko'chib o'tgan va umrining oxirigacha, ya'ni 117/735yilgacha o'sha yerda yashagan [8: 43].

2-tabaqa vakillari: Yax'yo ibn Ya'mar Lisiy – U Basrada tug'ilgan, so'ngra Xurosonga ko'chib o'tgan va Marvda qozilik qilgan. U Qur'oni karim ilmi, arab tilshunosligi va lug'atshunosligi bo'yicha olim edi. U Dualiydan birinchi bo'lib nahvni o'rganganlardan edi. Yah'yo ibn Ya'mar Lisiy 129/746 y. Basrada olamdan o'tgan. [11:71; 12,122-126]

Anbasa al-Fil – Anbasa ibn Ma'dan Miysoniy Maxriy. U nahv ilmini Dualiyda o'qigan. Uning tug'ilgan yili haqida ma'lumotga ega emasmiz. Biroq vafoti sanasini zamondoshlari Farazdaq va Jarirga tayangan holda taxminan hijratning 100 - yili deb aytishadi.

Nasr ibn Osim – Nasr ibn Osim ibn Amr ibn Xolid ibn Hamza ibn As'ad ibn Vadiy'a ibn Molik ibn Qays ibn Omir ibn Lays ibn Bakr ibn Abd Manat ibn Ali ibn Kinana. U nahv ilmini Yah'yo ibn Ya'mardan o'rgangan. Abu Amr ibn A'lo esa nahvni undan o'rgangan. Nasr ibn Osim Qur'on mushaflariga birinchilardan bo'lib nuqtalar qo'yganlardan hisoblanadi. U 89/707 y. olamdan o'tgan.

3-tabaqa vakillari: Abdulloh ibn Abi Ishoq – Abu Bahr Abdulloh ibn Abi Ishoq Zayd ibn al-Haris Hadramiy «Abi Ishoq» nomi bilan mashhur bo'lgan. Qur'on qiroati va arab tili bo'yicha yetuk olimlarning biri bo'lgan. Maymun al-Aqrandan nahvni o'rgangan. Abdulloh ibn Abi Ishoq 117/735 y. olamdan o'tgan. Suyutiy esa «127/744 yili, 88 yoshida vafot etgan», – deydi. [11: 72]

Abu Amr ibn al-A'la – U Makkai Munavvarada 70/689 yili tug'ilgan. So'ngra Basraga ko'chib o'tgan. Tobi'inlardan Qur'onni o'rgangan. Qur'onni Said ibn Jabir va Mujohidda o'qigan. Al-A'la yetti mashhur qorining biri darajasiga yetgan. Nahv ilmini esa Yah'yo ibn Ya'mar, Nasr ibn Osim va Abdulloh ibn Abi Ishoqdan o'rgangan. U haqida Asma'i shunday deydi: «Men Abu Amrdan mingta masala haqida so'radim, u menga mingta hujjat (isbot) bilan javob berdi». Uning vafoti sanasi haqida turli fikrlar mavjud. Jumladan, 154/770 yili 59 yoshida, 56 yoshida, 70 yoshida, 65 yoshida deyishadi [11:135-150].

Iyso ibn Umar Saqafiy – U Xolid ibn Validning do'stlaridan bo'lgan. Nahv ilmini Abu Ishoq va al-A'lodan olgan. O'zi esa Xalil ibn Ahmad, Yunus ibn Habib va Sibavayhilarga o'rgatgan. Sibavayhining aytishicha, Saqafiy nahvga oid 70dan ortiq kitob yozgan, biroq «al-Ikmal» va «al

-Jomi'»dan boshqasini ko'rmagan. Aytishlaricha, Sibavayhi kitobini «al-Jomi'»ga tayanib yozgan. Ammo bu ikki kitob ham yo'qolib ketgan. Chunki 368/ 978 y. vafot etgan Abu Sa'id Sayrofiy: «Bu ikki kitob bizning oramizda yo'q va biror kishi ularni ko'rganligini ham eslamaydi», – deydi. Iso ibn Umar Saqafiy 149/766 y. basraliklarga nahvdagi ilmini salaf sifatida qoldirib olamdan o'tgan. [11:75]

4-tabaqa vakillari: Al-Axfash al-Akbar – Abu Xattob Abdulhamid ibn Abdulmajid Qays ibn Sa'labning quli bo'lgan. Arab nahvi tarixida mashhur bo'lgan uchta «Axfash»ning biri. (11ta Axfashlarning oltinchisi bo'lgan). U arab tilining imomi edi. U al-A'robga, Abu Umar ibn Al-A'loga, Yunus ibn Habib, Sibavayhi va Kisoilylarga ustozlik qilgan. Ammo undan birorta yozilgan (yozma) narsa qolgan emas. Abu Xattob 177/793 y. vafot etgan.

Al-Xalil ibn Ahmad – Al-Xalil Ummon Sultonligining Masan'a viloyati sohilida joylashgan Vidam degan shaharda hijratning 100- yili tug'ilgan. Aytishlaricha, uning otasi payg'ambarimiz Rasululohdan keyin «Ahmad» deb nom berilgan birinchi kishi ekan. Ikki yoshida otasi bilan Basraga safar qiladi va o'sha yerda voyaga yetadi. Arab tilini Al-A'lodan, nahvni Iysa ibn Umardan, qiroatni Abdulloh ibn Kasirdan, hadisni Osim al-Ahvaldan, fiqhni Ayub Saxtiyoniyan o'rgangan. U yozgan asarlari:

۱. كتاب العين
۲. كتاب الفرش والمثال
۳. كتاب الشواهد
۴. كتاب معاني الحروف
۵. كتاب العروض
۶. كتاب النقاط والتشكيل
۷. كتاب الايقاع و النغم
۸. كتاب الجمل [۲۷۱: ۱۱]

Xalil ibn Ahmad 74 yil umr ko'rib, 170/786 yili vafot etgan va Basrada dafn etilgan. U Basra grammatika maktabining asoschisi hisoblanadi.

Yunus ibn Habib – Abu Adburahmon Yunus ibn Habib Zabbiy. Asli fors. «Habib» – onasining ismi. U 90/708 yili Jabbul degan shaharda tug'ilgan. U arab tilini Abu Amr ibn Al-A'lodan, nahv ilmini Hammod ibn Salmadan o'rgangan. Kisoiy, Forro va Sibavayhilar undan saboq olganlar. Yunus ibn Habib nahvga oid ko'pgina asarlar yozgan bo'lib tadqiqotchilar va izlanuvchilar ulardan shu bugungi kunimizgacha foydalanib kelmoqdalar. Ular:

۱. معاني القرآن الكريم
۲. كتاب اللغة
۳. كتاب النوادر الصغير
۴. كتاب الامثال [۹۷: ۰۱]

Yunus ibn Habib 98 yil umr ko'rib, 182/798 y. vafot etgan.

5-tabaqa vakili – Abu Muhammad ibn al-Muborak ibn al-Mug'ayyira Adaviy – «Yazidiy» nomi bilan mashhur bo'lgan. U Basrada voyaga yetgan. Til va qiroatni Abu Amr ibn al-A'lodan o'rgangan. Nahv va aruzni al-Xalil ibn Ahmadda o'qigan. Yazidiy til va nahvga oid ko'plab foydali asarlar yozib qoldirgan. Masalan:

۱. كتاب النوادر في اللغة
۲. مختصر في النحو
۳. كتاب النقاط و التشكيل
۴. كتاب المقصور و الممود. [۳۷۲: ۱۱]

Abu Ahmad Yazidiy 202/817 yilda Xurosonda 74 yoshida olamdan o'tgan.

Sibavayhi. U asli Eronda tavallud topgan. Yoshligi o'sha yerda o'tgan. Oilasi bilan Basraga ko'chib o'tishgan. O'sha davr ilmiy markazlaridan biri bo'lmish Basraga kelgan Sibavayhi ilm o'rganishga kirishadi. Sibavayhi hadis ilmini Hammod ibn Salamadan, tilni Al-Axfash al-Akbar va Abu Zayd Ansoriydan, nahvni Al-Xalil ibn Ahmad, Yunus ibn Habib va Iyso ibn Umardan, qiroat ilmini esa Ya'qub ibn Ishoq Xadramiy va Xorun ibn Musodan o'rgangan. Undan esa Al-Axfash al-Avsat, Qutrub va Noshiylar tahsil olishgan.

Sibavayhining arab tilini o'rganishga bo'lgan kuchli ishtiyoqining mahsuli «al-Kitob» asari bo'ldi. Sibavayhining asari mukammalligi tufayli undan keyingi davrdagi tilshunoslar ko'proq nahv ilmi bilan emas, balki tovushlar ilmi va lug'atshunoslik bilan shug'ullanib ko'pgina asarlar yaratishgan. Sibavayhining vafotidan keyin uning shogird va izdoshlari nahv ilmini o'rganishda davom etdilar, o'zlariga yarasha to'garak, maktab tashkil etdilar. Ularning bu to'garagi tarixga «Grammatikada Basra maktabi» nomi bilan kirdi.

6-tabaqa vakili – Al-Axfash al-Avsat. To'liq ismi Abul Hasan Sa'iyd ibn Mas'ada bo'lib, Tamim qabilasining qullaridan bo'lgan. U nahvshunoslar tarixiga oid manbalarda uchraydigan Al-Axfash nomli tilshunoslarning eng mashhuri hisoblanadi. Shuning uchun ham ko'pgina nahvga oid manbalarda uning «Al-Avsat» (o'rtancha) sifatini qo'shmasdan, Al-Axfash nomi bilan tilga olib

ketiladi. Aytishlaricha, u asli Xorazmdan bo'lgan, ilm izlab Basraga kelgan va shu yerda yashab qolgan ekan. Buyuk ustozlarining majlislarida Sibavayhi bilan birga dars olgan. Biroq u Al-Xalil ibn Ahmad bilan Basrada bir vaqtda yashagan bo'lsada, undan tahsil olmagan. Keyinchalik, Al-Axfash yosh jihatdan Sibavayhidan katta bo'lishiga qaramasdan undan ta'lim olgan. U Sibavayhining shogirdlari ichida eng iqtidorli va ishonchligi bilan boshqalaridan ajralib turardi.

Al-Axfash Sibavayhining «al-Kitob» asari bizgacha yetib kelishida yolg'iz vositachi vazifasini o'tagan. «al-Kitob»dan Sibavayhining huzurida kim dars olgani yoki Sibavayhi kimga dars bergani hech kimga ma'lum emas. Ammo Sibavayhining vafotidan so'ng, uning «al-Kitob»i Al-Axfashning huzurida o'qilgani, undan tahsil olinganigina ma'lum. Al-Axfashdan birinchi bo'lib Umar ibn Jarimiy va Abu Usmon Maziniylar mazkur kitobdan dars olgan.

Al-Axfash o'zidan keyin bir qancha asarlar yozib qoldirgan bo'lib, ularning aksariyati arab tili va lug'atshunosligi hamda aruz ilmiga bag'ishlangan. Bu asarlar quyidagilar:

كتاب الأوسط في النحو
كتاب الاشتقاق
كتاب المسائل الصغير
كتاب الأصوات
كتاب الأربعة
كتاب معاني الشعر
كتاب القوافي
كتاب المقاييس في النحو
كتاب المسائل الكبير
كتاب وقف التمام
كتاب تفسير معاني القرآن الكريم
كتاب العروض
كتاب الملوك
كتاب الغنم وألوانها وعلاجها

Rivoyat qilishlaricha, al-Axfash al-Xalil ibn Ahmad ishlab chiqqan 15 ta bahrni tuzatib, unga bitta «mutadorik» (مُتَادَرِك) nomli bahrni qo'shgan ekan. Al - Axfashning vafoti haqida manbalarda hijriy 211/826-yil, 215/830-yil, 221/835-yil va 225/839-yil kabi sanalar keltirilgan. [11:287]

Qutrub – Abu Ali Muhammad ibn Mustanir, «Qutrub» nomi bilan tanilgan. Basrada tug'ilib voyaga yetgan. Arab tili va nahv ilmlarini o'rganishni juda erta boshlagan. Nahvni Iso ibn

Umar, Yunus ibn Habiblardan o'rgangan. Ayniqsa, bu ilmni o'rganishda Sibavayhining etagidan mahkam tutgan. Hatto Qutrub tong saharlab Sibavayhi bilan uchrashish uchun uning uyiga borib, eshigi oldida uning chiqishini poylab turardi. Har gal Sibavayhi saharlab uyidan chiqqanda uni eshigi oldida ko'rardi va bir kuni unga: «Darhaqiqat, sen «qutrubu-l-layl» – «tun alvastisi»san (تَنَأِ امْنًا)», – degan ekan. Shu tariqa u «Qutrub» (قُتْرُبُ) degan laqab orttirgan ekan.

Qutrub o'z vafotidan so'ng Qur'on, hadis, arab nahvi va sarfi kabi bir qancha ilmlarga oid asarlar qoldirgan bo'lib, ularni quyida sanab o'tamiz [11: 290-291]:

كتاب معاني القرآن
الرد على الملحدين في متشابه القرآن
كتاب العلال في النحو
كتاب الأضداد
كتاب فعل وأفعال
كتاب الصفات
كتاب النواذر
كتاب الفرق
كتاب خلق الفرس
كتاب إعراب القرآن
كتاب غريب الآثار
كتاب المثبت في النحو
كتاب الهمز
كتاب القوافي
كتاب الأصوات
كتاب الأزمنة
كتاب خلق الإنسان

Abu Ali Muhammad ibn Mustanir Qutrub 206/821-yili vafot etgan.

7-tabqa vakillari: Jarmiy – Abu Umar Solih ibn Ishoq Bajliy. Jarmiy Basrada tug'ilib voyaga yetdi. Nahvni Al-Axvash al-Avsatdan, arab tilini Abu Ubayda, Abu Zayd Ansoriy va Asma'iylardan o'rgangan. Keyinchalik Bag'dodga kelib Farro bilan munozara olib borgan va uni mag'lub qilgan. Jarmiy o'z davrining fiqh, hadis va ilmida e'tibor qozongan kishilaridan bo'lgan. Undan Mubarrad va boshqalar hadis rivoyat qilishgan. Uning asarlari:

كتاب الفرخ
كتاب تفسير غريب سيبويه
كتاب الأبنية
كتاب العروض
كتاب السير

كتاب التنبيه والجمع
كتاب مختصر نحو المتعلمين
كتاب التصريف
كتاب القوافي

Abu Umar Jarmiyning 225/868 y. vafot etgan. [10:109]

Tavvaziy – Abu Muhammad Abdulloh ibn Horun. U Asma'iy, Abu Zayd Ansoriy va Al-Axfashlardan dars olgan, Abu Umar Jarmiyning huzurida Sibavayhining «al-Kitob»ini o'rgangan. Arab tili va nahv ilmla-rida shuhrat qozongan va o'z zamonasida arab she'riyatida tengsiz bo'lgan. Arab tili va adabiyotiga oid asarlar yozib qoldirgan. Ular quyidagilar:

كتاب الأمثال
كتاب النوادر
كتاب الخيل وسبقها وأنسابها وشيائها وغرتها وإضمارها ومن نسب إلى فرسه
كتاب الأضداد
كتاب فعلت وأفعلت

Tavvaziy hijriy 230/844 yoki 233 / 847-yil vafot etgan.

Maziniy- Abu Usmon Bakr ibn Muhammad Maziniy Basrada tug'ilib o'sgan. Abu Ubayda, Abu Zayd, al-Axfashlardan tahsil olgan. Maziniyning nahvga oid ko'pgina asarlari ichida eng ahamiyatlisi «At-tasrif» (التصريف) – fe'llarning tuslanish kitobidir. Mazkur asar Sibavayhining «al-Kitob» idagi fe'llarning tuslanishiga oid bobidan farqli ravishda muammolarni o'rganadi. Maziniy tasrif, ya'ni fe'llarning tuslanishini nahv ilmidan ajratib olib, sarf ilmiga asos soldi. Abu Ali Forisiy va Ibn Jinniy kabi keyingi olimlar uning yo'lini tutdilar. Ibn Jinniy Maziniyning mazkur asariga sharh yozib, uni «al-Musannaf» (المصنف) deb atagan. Maziniyning asarlari:

كتاب في القرآن
تفسير كتاب سيبويه
كتاب الألف واللام
كتاب القوافي
كتاب في علل النحو
ما نلحن فيه العامة
كتاب العروض
كتاب الديباج في جوامع كتاب سيبويه على خلاف كتاب أبي عبيدة

Maziniy 149/766-yil Basrada vafot etgan[11:322].

Abu Hotim Sijistoniyy – Abu Hotim Sahl ibn Muhammad ibn Usmon ibn Qosim ibn Yazid Jushmiy Sijistoniyy bo'lib, basralik olimlardan bo'lgan. Qur'oni karim, arab tili va adabiyoti ilmlarining imomi bo'lgan. Abu Hotim Qur'on, hadis, nahv, sarf, til, balog'at, aruz ilmi va boshqa ilm sohalariga oid bir talay asarlar yozib qoldirgan. Ular:

إعراب القرآن	كتاب القراءات
كتاب المقاطع والمبادئ	كتاب اختلاف المصاحف
المختصر في النحو	كتاب ما تلحن فيه العامة
كتاب المقصور والممدود	كتاب المذكر والمؤنث
كتاب الأشباع	كتاب الأضداد
كتاب الهجاء	كتاب الفصاحة
كتاب الشجر والنبات	كتاب النخلة
كتاب الكرم	كتاب العشب والبقل
كتاب الوحوش	كتاب الحشرات
كتاب الزرع	كتاب الجراد
كتاب خلق الإنسان	كتاب القسي والسهم والنبال
كتاب السيوف والرماح	كتاب اللبأ واللبن الحليب
كتاب الخصب والفحط	كتاب النحل والعسل
كتاب الشتاء والصيف	كتاب الأبل
كتاب الحر والبرد والشمس والقمر والليل والنهار	كتاب الفرق بين الأدميين وبين كل ذي روح
	كتاب الشوق إلى الوطن

Abu Hotim Sijistoniyyning vafoti aksariyat manbalarda «255/868 yil Basrada» deb ko'rsatilgan [11:331].

Riyoshiy – Abul-Fazl Abbos ibn al-Faraj. Riyoshiy arab tili va she'riyati olimlaridan bo'lgan. U Basrada unib-o'sgan. Nahv ilmini Maziniydan, arab tiliga oid ilmlarni Asma'iydan olgan va Basraning buyuk nahvshunos va lug'atshunoslaridan biriga aylangan. U ko'pgina asarlar yozib qoldirgan. Riyoshiy 257/870 y. vafot etgan. Mazkur yili qora tanlilar Basraga bostirib kirib qo'zg'alon ko'tardilar. Riyoshiy qo'zg'alon vaqti tongda bomdod namozini o'qiyotgan chog'ida o'ldirib ketilgan[10:112].

Al-Mubarrid – Abu Abbos Muhammad ibn Yazid ibn Abdu-l-Akbar ibn Umayr ibn Hison ibn Salim bint Sa'd ibn Abdulloh ibn Yazid ibn Molik ibnu-l-Horis ibn Omir ibn Abdulloh ibn Bilol ibn Avf ibn Aslam.

Al-Mubarrid Basrada tug'ilgan, Jarmiy, Maziniy, Abu Hotimlardan tahsil olgan. Avval Buxoroda, so'ngra Kufada yashab ijod etgan.

O‘z navbatida Mubarrid ham Abu Ishoq az-Zujoj, Abu Bakr ibn as-Siroj va Mubramonlarga ustozlik qilgan. Keyinchalik uning Basrada qadr-qiymati, shuhrati osha boshladi. U bilan Basra grammatika maktabining boshqaruvi yakunlanadi¹. U bir qancha asarlar yozib qoldirgan va hozirgacha uning asarlari tayanch darsliklardan sanalib kelinmoqda. Ular:

إعراب القرآن	نسب عدنان وقحطان
كتاب الفاضل	ما اتفق لفظه واختلف معناه من القرآن المجيد
المقتضب	كتاب الكامل
كتاب التصريف	كتاب الاشتقاق
شرح شواهد الكتاب	المدخل إلى سيبويه
الرد على سيبويه (مسائل الغلط)	معنى كتاب (الأوسط) للأخفش

Basra grammatika maktabining so‘nggi vakili al-Mubarrid bo‘ladi. U 286/899 (yoki 287/900 y) yili vafot etgan[10:113; 11:360]

ХУЛОСА

Basra maktabining vakillari klassik arab tilining normalariga qat’iy rioya qilganliklari uchun ularni analogistlar – «al-qiyasiyyun» deb atashar edi. Nahv ilmida ixtiloflar dalil keltirishning ikki turiga borib taqaladi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, bahslashayotgan tilshunos o‘z fikrini isbotlashi uchun dalil keltirishi kerak. Ilmiy bahs va munozarada kimki o‘z gapiga dalil- isbot keltirsa, o‘shaning fikri tasdiqlangan. Shunday dalillar 2 xil bo‘ladi:

1. Aqliy dalil – «qiyos»
2. Naqliy dalil – «simo’»

Basra maktabiga «qiyos maktabi» deb nom berilgan. Chunki ularning nahvi qiyosga asoslangan. «Islom falsafasi tarixi» kitobida de Bur shunday deydi: «Basra tilshunoslari o‘zlarining nahvga taalluqli xulosalarida qiyosni yuqori o‘ringa qo‘yar edilar. Basraliklar o‘z maktablarini keng tarqalgan ishonchli arab kalomlari asosiga qurishgan va kam uchraydigan nodir jumladan chetlanishgan. Shuning uchun ularning tuzgan qoidalari barqaror, mustahkam edi. Ular bu qoidalardan chetga chiqmay ularga to‘liq rioya qilishga qattiq e’tibor berganlar. Bu qoidalarga zid

keladigan kalomlarni xato yoki istisnoli kalomlar deb qarar edilar.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллох Абдулхамид Саад. (2007) Ўрта Осиё олимлари қомуси – Т.: Имом Бухорий республика илмий-маърифий маркази. 960-б.
 2. Akmalxonov, Akmalxon (2019) Abu Yakub Sakkaki’s views on the role of the source letters in words in Arabic. International Journal of Research 2019 (March), 353-359.
 3. Гиргас В.(1873). Очеркъ грамматической системы арабовъ.-СПб.–203с.
 4. a.NASIROVA, Malika (2019). Scientific heritage of Makhmud Zamakhshari and actual questions of the studies of Mavarennakhr’s linguistic school. The Light of Islam: Vol. 2019: Iss.1, Article15. Availableat: <https://uzjournals.edu.uz/jiau/> vol 2019/ iss 1 / 15
 5. b.NASIROVA, Malika (2019). THE CONTRIBUTION OF THE OUTSTANDING MAVARANNAHRIAN SCHOLAR MAHMUD AZ-ZAMAKHSHARI INTO THE WORLD LINGUISTICS. International Scientific Journal. Theoretical and Applied Science. Clarivate Analytics. Philadelphia, USA 2019.(10), 755-759.
 6. c. NOSIROVA, MALIKA. (2019) Тилшунослик билимлари тарихи. Дарслик. -Т.: NAVRO‘Z. 232-б.
 7. NASIROVA, Malika (2020). “SEMANTIC CLASSIFICATION OF AUXILIARY VERBS IN ARABIC LANGUAGE”. The Light of Islam: Vol.2020:Iss.3,Article15.Availableat: <https://uzjournals.edu.uz/jiau/> vol 2020/ iss 3 / 15
- مازن المبارك . النحو العربي. العلة النحوية: نشأتها وتطورها.- بيروت. دار الفكر ١٣٩١/١٩٧١ مصر.- ٢٠١٢محمود الزمخشري المفصل في صناعة الاعراب
- محمد الطنطاوي. نشأة النحو وتاريخ أشهر النحاة. دار المعارف. الطبعة الثالثة. القاهرة. ٢٠٠٥. ص١١٢
- صلاح رؤاي. النحو العربي نشأته، تطوره، مدارسه، رجاله. دار الغريب للطباعة والنشر والتوزيع. القاهرة ٢٠٠٣. ص٧٥٦
8. www.arabdict.com
 9. www.drmosad.com
 10. www.al-ahram.org
 11. www.al-axbar.org

¹ الشيخ محمد الطنطاوي. نشأة النحو وتاريخ أشهر النحاة. دار المعارف. الطبعة الثالثة. القاهرة. ٢٠٠٥. ص١١٢